

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 5 (1066), 2024-yil 9-yanvar, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Hurmatli prokuratura xodimlari!

Muhtaram faxriylar!

Avvalo, siz, aziz qonun posbonlarini 8-yanvar — O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni bilan chin qalbindan samimiy muborakbod etaman.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda barpo etish yo‘lida amalga oshirayotgan barcha ishlohtlarimizda qonun ustuvorligini ta‘minlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Qonun hukmron bo‘lgan jamiyatda albatta adolat, siyosiy-ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘shish va yuksalish bo‘ladi, inson qadri, huquq va manfaatlari ta‘minlanadi.

Bunday muhim maqsadlarga erishishda prokuratura organlari va ushbu tizimda xizmat qilayotgan, o‘z kasbi va burchiga sodiq, vatandor insonlarning roli katta ekanini bugun alohida ta‘kidlashimiz o‘rinlidir.

Qadri do‘stlar!

Sizlarga ma‘lumki, so‘nggi yillarda prokuratura sohasini tubdan isloh etish, bu borada ochiqlik va adolatga asoslangan, fuqarolar va jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan, xalqparvar qarorlar qabul qilish, o‘z nazariy va amaliy maktabiga, fidoyi va professional xodimlar korpusiga ega bo‘lgan tizimni shakllantirish bo‘yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

El-yurtimizning Konstitutsiyamizda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishda, qonuniyligi ta‘minlash, jinoyatchilikning oldini olishda prokuratura organlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Ayniqsa, xalq bilan ochiq muloqot qilish, aholi muammolarini chuqur o‘rganish va hal etish, inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilish soha xodimlarining eng asosiy va kundalik vazifasiga aylandi.

Prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat olib borish faoliyati tubdan o‘zgartirildi. Ilgari qonun buzilishi holatlarini aniqlash va jazolashga asosiy o‘rin berilgan bo‘lsa, endi asosiy e‘tibor bunday holatlarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilmoqda.

Eng muhimi, prokuratura tizimi ham, odamlarimizning unga nisbatan munosabati ham o‘zgarmoqda. Bugungi kunda el-yurtimiz prokuratura timsolida “jazolovchi

idorani” emas, balki aholi va tadbirkorlarning buzilgan huquqlarini tiklashga ko‘maklashadigan, ularning dardiga sherik, madadkor bo‘lishga harakat qiladigan xalqparvar tuzilmani ko‘rmogda.

Buni keyingi yetti yilda prokuratura organlari tomonidan 2 millionga yaqin murojaat ijobiy hal etilib, 300 mingdan ortiq fuqaroning buzilgan huquqlari tiklangani, 148 mingga yaqin tadbirkorning muammolariga yechim topilgani ham tasdiqlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish, shuningdek, tergov hamda huquqni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida Bosh prokuratura akademiyasi negizida O‘zbekiston Respublikasi **Huquqni muhofaza qilish akademiyasi** tashkil etildi.

Bugungi kunda **tadbirkorlik va investitsiya, qurilish yo‘nalishlarida, yer resurslaridan foydalanishda qonun buzilishining oldini olish, xotin-qizlar va yoshlar huquqlarini ta‘minlash hamda ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish, yoqilg‘i-energetika va ekologiya, madaniy meros va sport sohalarida** qonun ustuvorligini ta‘minlashga qaratilgan samarali prokuror nazorati tizimi yo‘lga qo‘yildi va o‘z ijobiy natijalarini bermogda.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan o‘tgan davrda 53 mingdan ziyod huquqbuzarlik va jinoyatga chek qo‘yildi, davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan 4,7 trillion so‘m zarar undirildi, 15 mingdan ortiq shaxsning faoliyatiga qonuniy tus berilib, ularning tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tishi ta‘minlandi.

Prokuratura huzurida Majburiy ijro byurosining tashkil etilishi ijro ishini yuritish bo‘yicha mavjud tartibsizliklarga barham berib, qat‘iy intizom o‘rnatishga imkon yaratdi. Birgina o‘tgan yil davomida 36 trillion so‘mlik sud hujjatlarining ijrosi ta‘minlandi.

Hurmatli soha xodimlari!

Mamlakatimizda **“Qonun – ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar”** degan ezgu tamoyil asosida qonuniyligni ta‘minlash borasidagi ishlaringiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda har bir prokuratura xodimi bir haqiqatni chuqur anglab yetishi zarur. Qachon odamlarimiz

hayotida xotirjamlik, ro‘zg‘orida farovonlik va halovat bo‘ladi, qachon ularning erangi kunga ishonch ortadi? Qachonki, yurtimizda qonunlar qo‘g‘ozda emas, balki amalda qat‘iy bajarilgan, ishlohtlar har bir xonadon, har bir mahallaga kirib, yurtdoshlarimiz ularning amaliy samarasini o‘z kundalik hayotida his etgan taqdirda bu maqsadga to‘la erishish mumkin.

Xalqimizning og‘irini yengil qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish, kambag‘alikka qarshi kurashishga qaratilgan dasturlarimiz ijrosini izchil tashkil etish, atrof-muhit, tabiiy boyliklar va madaniy merosimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, tibbiyot, ta‘lim kabi sohalardagi ishlohtlarimizni davom ettirish va bu borada qonun buzilishiga murossasiz bo‘lish — prokuratura xodimlarining konstitutsiyaviy burchi va eng asosiy vazifasidir. Buni hech kim unutmangiz kerak. Aminmanki, yurtimizda **korruptsiya illatiga qarshi kurashish jarayoni umumxalq harakatiga aylanayotgan bugungi kunda prokuratura xodimlari alohida jonbozlik ko‘rsatib, o‘z tashabbuslari bilan barchaga namuna bo‘ladilar.**

Ana shu maqsadlarda prokuratura organlari faoliyatiga ilg‘or ish uslublarini va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, qonunlar ijrosi ustidan nazorat mexanizmlarini muntazam takomillatirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va tergov ishiga zamonaviy ilm-fan hamda amaliyot yutuqlarini tatbiq etish, xodimlarning bilim darajasi va ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini oshirish, ularning fidokorona mehnatini munosib qadrlash kelgusida ham e‘tiborimiz markazida bo‘ladi.

Ishonchim komil, prokuratura xodimlari **qonun himoyasi — bu xalq va Vatan himoyasi kabi muqaddas burch** ekanini chuqur anglab, zimmlaridagi g‘oyat mas‘uliyatli va sharafli vazifani bundan buyonham samarali ado etadilar.

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog‘liq, baxt va omad, xonadonlaringizga fayzli baraka, qonun va adolat ustuvorligini ta‘minlash yo‘lidagi ishlaringizda ulkan zafarlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

BANDLIK VA TADBIRKORLIK SOHALARIDAGI TAKLIFLAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-yanvar kuni aholi bandligini oshirish hamda tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Rasmiy statistikaga ko‘ra, yurtimizda ishsizlar soni 1 million 300 ming nafarni tashkil qiladi. Bu yil yana 2 million 400 ming aholi mehnat bozoriga kirib keladi.

Shularni inobatga olib, sifatli va yuqori daromadli ish o‘rinlari hisobiga joriy yilda 5 million aholining bandligini ta‘minlash maqsad qilingan. Jumladan, xizmatlar sohasida 2,5 million, qishloq xo‘jaligida 2,1 million, investitsiya loyihalari va sanoatda 250 ming, qurilishda 140 ming ish joyi yaratish imkoniyati bor.

Bundan tashqari, zamonaviy moliyaviy instrumentlar, jumladan, mikromoliyalashning yangi tizimini keng joriy qilish orqali 2 million aholini biznesga jalb qilish ko‘zda tutilmoqda.

Taqdimotda mutasaddilar 2024-yilda yangi ish o‘rinlari tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi bo‘yicha axborot berdi.

Davlatimiz rahbari bu dasturni ma‘qullab, uni amalga oshirish yuzasidan qo‘shimcha ko‘rsatmalar berdi.

So‘nggi yillarda 2 million 400 ming aholi o‘zini o‘zi band qilgani ta‘kidlanib, endi ularning faoliyatini kengaytirish, bosqichma-bosqich kichik biznesga o‘tkazish va bozor topishiga ko‘maklashish muhimligi aytili. “Mening biznesim” platformasi, “Biznesga birinchi qadam” bank kartalari joriy etilishi buning uchun qulaylik yaratadi.

Iqtisodiy aylanmaga kiritilmagan yerlarni infratuzilmaga ulash, loyihalarni ishga tushirish uchun tashabbuskorlarni qo‘llab-quvvatlash zarurligi qayd etildi. “Agregator” tizimi asosida “100 ming eksportchi dehqon” dasturi joriy qilinib, bu yil 15 ming gektar yer maydonlari auksionga chiqarilishi belgilandi.

Mehnat stajiga ega bo‘lmagan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish, ijtimoiy reyestrtdagi fuqarolarni ishga olgan korxonalariga soliq bo‘yicha yengilliklar qo‘llash muhimligi ham aytili.

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha qo‘shimcha xaxira va imkoniyatlarni aniqlash vazifasi qo‘yildi.

Taqdimotda tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash tartibini soddalashtirishga oid takliflar ham ko‘rib chiqildi.

Ma‘lumki, bu yil yurtimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e‘lon qilindi. Biznesni yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsad qilingan.

Aytish joizki, shu paytgacha tadbirkorlardan mavjud ma‘lumotlarni qo‘shimcha ravishda talab qilish holatlari bor edi. Joriy yildan boshlab 34 turdagi hisobotlar bekor qilingan. Buning natijasida har yili 21 mingdan ortiq tadbirkorning 500 million so‘m xarajati tejalandi.

O‘zi, umuman, tadbirkorlar tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarning yagona ro‘yxati tasdiqlanmagan. Shu bois, davlatimiz rahbari yagona hisobotlar tizimini joriy qilish bo‘yicha topshiriq berdi.

Shuningdek, tadbirkorlarga majburiy talablarni qisqartirish maqsadida 16 ta litsenziya va ruxsatnomani bekor qilish lozimligi belgilandi.

Bu borada berilayotgan yengilliklarni tadbirkorlarga yetkazish, ularning takliflarini doimiy o‘rganib, statistik hisobotlarni yanada maqullashtirib borish vazifasi qo‘yildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz prokuratura organlaridagi ko‘p yillik fidokorona mehnati, yurtimizda qonuniyligni va huquq-tartibotni mustahkamlashga qo‘shgan katta hissasi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish yo‘lidagi ibratli faoliyati, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamiyatimizda huquqiy madaniyatni oshirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi alohida xizmatlari uchun quyidagilar mukofotlanis:

“Mardlik” ordeni bilan

Aminov Shoxrux Azamatovich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosari
Xamdamon Ulug‘bek Aslonovich — Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahar prokurori

“Do‘stlik” ordeni bilan

Yerniyazova Venera Tajetdinovna — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari

“Jasorat” medali bilan

Abdilazizov Davronbek Maxmudjonovich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Adijon viloyati boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari
Buronov Nurbek Erkinovich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy

jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Samarqand viloyati boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i

“Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan

Boltayev Halim Husanboyevich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i
Muratov Jaxongir Dilshatovich — Toshkent shahar Chilonzor tumani prokurori
Sayfulloyev Erkin Xudoyorovich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Navoiy viloyati boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari
Fayziyev Vaxob Kamolovich — Buxoro viloyati Kogon shahar prokurorining katta yordamchisi

“Shuhrat” medali bilan

Abduxakimov Murodullo Togayevich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i
Karimov Xurshid Akramovich — O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi kafedra boshlig‘i
Qodirov Abdumov‘min Abdumajit o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Surxondaryo viloyati Sherobod tumani bo‘limi davlat ijrochisi
Tashpulatov Xurshid Sabirjanovich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Toshkent shahar Yunusobod tumani bo‘limi boshlig‘i
Xabiljonov Ulug‘bek Xabiljon o‘g‘li — Toshkent viloyati Angren shahar prokurori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 8-yanvar

Yangi O‘zbekiston orzusi



MAQSADIMIZ ham, YO‘LIMIZ ham ANIQ

MAS‘ULIYAT VA DAXLDORLIK TUYG‘USI KO‘ZLAGAN MARRAMIZGA YETKAZADI (Birinchi maqola)



Dunyoda kechayotgan global o‘zgarishlar, jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida g‘oyat murakkab, ziddiyatli jarayonlarning guvohi bo‘lyapmiz. Ushbu pallada demokratik rivojlanishni izdan chiqaradigan va insoniyat birligiga tahdid soladigan g‘oyaviy yo‘nalishlar vujudga kelishi, gegovonlikka intilayotgan davlatlar manfaatini to‘qnashuvi avj olayotir. Shuningdek, ko‘p qutblilikka asoslangan dunyoni barpo qilishning tobora murakkablashuvi va yana ikki qutbli dunyoning shakllana boriishi tahdidli holatni vujudga keltiryapti. Ayniqsa, yoshlar orasida nosog‘lom diniy tushunchalarning kuchayib boriishi, moddiy va ma‘naviy manfaatlar muvozanati buzilishi, globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha sohasiga kirib kelayotgani achinarlidir.

Har qanday siyosiy ziddiyat, qurolli to‘qnashuv va urushlar ijtimoiy-iqtisodiy yo‘qotishlarga, insoniyat taraqqiyotining bir necha yillar ortda qolishiga sababchi bo‘lgan. Urush natijasida esa xalq kambag‘allashadi, iqtisodiyot, ta‘lim, sog‘liqni saqlash tanazzulga yuz tutadi, butun boshli avlodlar va bebaho umrlar boy beriladi.

Davomi 3-betda

Tahlil va taqqos

O‘ZIGA XOS ZANJIR

Bunda O‘zbekiston qay darajada ishtirok etmoqda?

Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda dunyoda transport xizmatlarining yillik aylanma hajmi 4,3 trillion AQSH dollarini tashkil etib, yiliga 110 milliard tonna yuk va 1 trilliondan ziyod yo‘lovchi tashilmoqda. Tizimda 100 milliondan ziyod kishi ish bilan band. Bular kichkina raqamlar emas. Aksincha, mazkur tarmoq rivojlanish zanjirida o‘ziga xos o‘rin egallayotganini anglatadi.

Davomi 4-betda



14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

SARHADLARIMIZ OSOYISHTALIGINING ISHONCHLI KAFOLATI

Bektosh OMONOV, harbiy xizmatchi

Bolagimdayoq harbiylarning shaxdam qadam tashlashlari-yu chiroyli kiyimlariga havas bilan qarardim. Maktabda o'qigan davrimizda haftaning yakshanba kuni televizorda "Vatanimga xizmat qilaman" nomli ko'rsatuv namoyish etilardi. Har gal qiziqib ko'radim. Mana shu ko'rsatuvlar ham meni harbiy bo'lishga undagan. Muntazam sport bilan shug'ullandim.



Mana shunday xalqaro musobaqalar biz uchun o'ziga xos mahorat maktabi ham hisoblanadi. Bu bellashuvlarda yuksak harbiy salohiyat, bilim, mardlik va jasurlik namunalari ko'rsatish kerak. Quvonarlisi, harbiylarimiz xalqaro maydonlarda o'tkazilayotgan ko'plab shunday nufuzli harbiy-sport musobaqalarda faxrli o'rinlarni, salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritib, O'zbekiston harbiylarining nimalariga qodirligini isbotlab kelmoqda.

Bugun notinch va tahlikali zamonda yashayapmiz. Turli mintaqalarda o'zaro urushlar, nizolar ro'y bermoqda. Bu esa bizdan yanada ogoh va sergak bo'lishni talab etadi. Xalqimiz hushyor, chin vatanparvar bo'lib, mustaqillik, tinchlik, osoyishtalikning qadriga yetsa, yurt manfaatini barcha narsadan ustun qo'ysa, ishonamanki, tashqaridan sarhadlarimizga hech qanday kuch daxl qilmaydi. Zero, zamonaviy qurol-aslaha, texnika va yetuk harbiy mutaxassislariga ega armiyamiz yurtimiz yaxlitligi va sarhadlarimiz daxlsizligining ishonchli kafolati hisoblanadi.

O'tgan yili O'zbekiston armiyasi harbiy salohiyat bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi, dunyo miqyosida esa 62-o'rinda qayd etildi. Quvonarlisi, mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirish "O'zbekiston — 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

Shuni faxr bilan ayta olamanki, Qurolli Kuchlar tizimidagi islohotlar sabab, yoshlarimiz o'rtasida harbiy xizmatning obro'-e'tibori keskin ko'tarildi, milliy armiyamiz safidan joy egallashga intilish orzusi kuchaydi. Bir so'z bilan aytganda, armiyada xizmat qilish shon-sharaf ishiga aylandi. Agar sobiq sovet davrida ota-onalar farzandini armiyaga xavotir bilan kuzatgan bo'lsa, hozir ular farzandlarining Vatan oldidagi burchini ado ettirishga xohishlari juda baland. Bunga, avvalo, ularning vatanparvarligi, qolaversa, mamlakatimizda harbiylarga bo'lgan katta e'tibor sabab, deya olaman.

Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilayotganimga yigirma yildan oshdi. Vatan oldidagi xizmatlarim davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanmoqda. Prezidentimizning tegishli farmoniga binoan, Vatanimizning yuksak mukofoti — "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan taqdirlandim. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining "Namunali xizmatlari uchun" 2- va 3-darajali ko'krak nishonlari hamda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga 30 yil" esdalik nishonini olishga musharraf bo'ldim. Ushbu yuksak mukofotlar zimmandagi Vatanga sidqidildan xizmat qilish mas'uliyatini yanada oshirdi. Bundan keyin ham bor kuchim, bilim va salohiyatim bilan yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi, osmonimiz musaffoligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashga xizmat qilaman.

Jizzax viloyati

1999-yili Oqdaryo tumanidagi 13-umumta'lim maktabini bitirib, mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotiga o'qishga kirdim. Haydovchilik guvohnomasini olganimgan so'ng Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qismlardan birida xizmat qildim. 2003-yili Samarqand serjantlar tayyorlash maktabiga o'qishga kirdim. Mazkur maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, serjant unvoniga sazovor bo'ldim. Shundan buyon Jizzax viloyatida shartnoma asosida xizmat qilayapman. Shu kasbni tanlaganimdan xursandman. Avvalo, aziz Vatanimiz daxlsizligi, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashda oz bo'lsa-da, hissam borligidan faxrlanaman. Qolaversa, harbiylik kasbim sabab obro'-e'tibor topdim.

Jumladan, 2017-yilda Xitoyda o'tkazilgan "ARMI — 2017" xalqaro armiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi safida "Qurolsoz usta" yo'nalishida qatnashib, kumush medal bilan taqdirlandim. 2018-yilda esa Rossiyaning Penza shahrida



Hududlar hayoti

Sarvar TO'RAYEV, jurnalist

Yoshi qariyb to'qsonni qoralagan Ismatulla bobo Abdullayev nabirasi Shuhratga yozindagina tuman markazidan sotib olib kelingan radioning ovozini bir oz balandlatishni buyurdi. Aslida, bu qishloqqa yaqindagina elektr yetib kelgani bois, odamlar endigina televizor va radiodan bahramand bo'ldi. Radiodan Alisher Navoiyning mashhur klassik asari bo'lgan "avvalgilarg'a o'xshamas" radifli g'azaliga bitilgan muxammas asosida yaratilgan qo'shiq yangraydi.

VOCHAXGA ELEKTR KELDI, QALBLARGA ESA YORUG'LIK

Kotibu davru raqam avvalgilarg'a o'xshamas, Endi inson qadri ham avvalgilarg'a o'xshamas.

Vochaxlik Ismatulla bobo tengilar qishloqlariga elektr toki kelib, bir bor bo'lsa-da, xonadonlariga, kelajaklari haqidagi tasavvurlarga yorug'lik kirishini, nevara-chevaralarini quvontirishini istagan bo'lsa-da, ammo bu yorug' kunlarga yetmadi.

Yurtida "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nom berilgan yakunlangan yil nomiga monand inson qadri ulug'lash, uning huquq va erkinliklarini yanada qo'llab-quvvatlash, muammolarni yechish va ijtimoiy islohotlarda o'ziga xos yuksalish yili bo'ldi.

Sariosiyo tumanidagi "Shabnam" mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli Vochax qishlog'i aholisi uchun ham o'tgan yil avvalgilarga hech o'xshamaydigan eng xayrli va quvonchli yil bo'ldi.

Bu manzilga ilk bor elektr energiyasi yetib keldi. Zamonaviy maktab qurilib, foydalanishga topshirildi. Qishloq vrachlik punkti va yo'l infratuzilmasini yaxshilash haqidagi vochaxliklarning murojaatlari qo'llab-quvvatlandi.

Tuman markazidan 65 kilometr olisda joylashgan tog'li Vochax qishlog'idagi 25 ta xonadonda 120 dan ortiq aholi istiqomat qiladi.

Bundan atigi besh yil avval ham Vochaxda televizor va radio nimaligini bilmaydigan yoshi kattalar, kompyuterni bilmaydigan yoshlar bor edi. Vaholanki, qishloqdan 15-20 kilometr naridagi qo'shni Karsh, Zarxona va Maland qishloqlariga bundan 60-70 yil avval



elektr energiyasi tortilgan. Lekin murakkab tog' sharoiti Vochaxga elektr tarmog'i tortish imkonini bermagandi.

2023-yilning may oyidan boshlangan ishlar tog' qoyaliklari sabab ham qator murakkabliklarni keltirib chiqardi. Tog'da ishlaydigan maxsus texnikalar va mutaxassislar yordamida 100 dona maxsus temir ustun va elektr tarmog'i uchun 18 ming metr AS-25 sim hamda bir dona 160 kuchlanishli transformator punktni o'rnatish ishlari olib borildi.

Davlat tomonidan berilgan e'tibor hamda vochaxliklarning asriy orzulari ro'yobi yo'lidagi birdamlik sabab, Karshdan elektr tarmog'i tortildi.

— Qishloq'imiz tog' etagida joylashgani bois, avtomashinalar yurishi deyarli imkonsiz. Faqat yozdagina Karsh qishlog'i orqali mashinalar Vochaxga yaqinroq kela oladi. Shu sababli aholi Sariosiyo tumani markaziga chiqish uchun avval ot va eshaklardan foydalanadi. Qishloqdan To'palang suv ombori bo'yigacha ikki soat, 15-18 kilometr yuriladi. Suv omboridan qayigda kechib o'tiladi va shundan so'ng avtomashinada markazga yetib boramiz, — deydi vochaxlik Shuhrat Abdullayev. — Shu kungacha ayollar kiyim dazmollash uchun ichiga cho'g' solingan temir dazmoldan foydalangan. Bolalarimiz esa kechalari fonus va moychiroq yorug'ida dars qilardi. Endi bularning bari tarixda qoldi.

Qishloq salkam besh yuz yillik tarixga ega. Bu yerda ko'hna masjid, qadamjo,


tog'da esa geologlar o'rganishicha, qazilma boyliklari bor.

Vochax qishlog'i aholisi uzoq yillar davomida bir xil sharoitdagi hayotga ko'nikib ketgandi. 2016-yildan so'ng ochiqlik va shaf-foflik muhiti, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashning samarali mexanizmi yaratilgani, rahbarlarning quyigay tushib, aholi bilan sayyor qabullar tashkil etila boshlashi ularning ko'nglida ham kelajakka bo'lgan umid uchqunlarini yoqdi.

Qishloq aholisi viloyat va tuman hokimliklari, xalq qabulxonalariga murojaat qilib, qishloqni elektr bilan ta'minlashni so'radi. Bugun o'sha paytlarda imkonsiz tuyilgan bu orzular amalga oshgan.

Vochaxda uzoq yillar davomida maktab bo'lmagan, allakimlarning uyida bolalarga nomigagina saboq berilardi. Sariosiyo tumani hokimligi tomonidan 2004-yilda ikki xonali maktab qurib berilgandi.

Qish va bahori qor-qirovli, seryog'in keladigan tog' qishlog'ida shundog'am qorong'i va zax, tomidan chakki o'tib turadigan maktab binosi tezda abgor holatga kelib qoldi. Ota-onalar bolalarini maktabga jo'natmay qo'ygandi. 2023-yilda 40 o'rinni



Yangilik

SUVNI TEJAB, QUYOSH PANELIGA EGA BO'LISH MUMKIN

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamkorlikda yangi loyihani boshladi. Ya'ni joriy yilning 1-yanvaridan boshlab, Nukus shahrida ichimlik suvidan foydalanish bo'yicha ko'p qavatli uylar o'rtasida "Tejamkor uy" va "Tejamkor xonadon" reyting tizimi ishga tushirildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ichimlik suvidan oqilona foydalanish va uni tejashdir.



Mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning inson sog'lig'iga zararli ta'sirini kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini yaxshilash uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Suvni tejash borasidagi ushbu loyiha ana shu ishlarning mantiqiy davomidir.

Binobarin, har qanday tabiiy resursning ham oxiri bor. Shunday ekan, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish bugun har qachongidan muhim va dolzarb.

— Prezidentimizning 2023-yil 31-martdagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga

asosan, ushbu tizim dastlab Nukus shahrida ishga tushirilmoqda, — deydi tanlov o'tkazish bo'yicha ishchi guruh rahbari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining bo'lim boshlig'i Jalg'as Habibullayev. — Bugungi kunda ushbu tanlovda Nukus shahridagi 21 ta ko'p qavatli turar joy ishtirok etmoqda.

Qayd etganimizdek, keyingi yillarda kuzatilayotgan global iqlim o'zgarishi natijasida suvdan to'g'ri foydalanish davr talabiga aylanmoqda. Shu bois, hozirgi kunda Nukus shahridagi maxsus ishchi guruh tomonidan tanlab olingan xonadon va uylardagi suv hisoblagichlarni nazoratdan o'tkazish jarayoni boshlab yuborildi.

"Qoraqalpog' suv ta'minot" mas'uliyati cheklangan jamiyati Nukus shahri bo'limi boshlig'i o'rinbosari Sulton Begjanovning

aytishicha, tanlab olingan ko'p qavatli turar joylarda joriy yilning 1-yanvaridan boshlab suv tejamkorligi bo'yicha ishlar boshlangan. Bunda xonadonlarning suv hisoblagichlari har o'yning birinchi va oxirgi sanalarida tekshirilib, monitoring qilib boriladi. Yil yakunida g'oliblar aniqlanadi.

Reyting natijalariga ko'ra, eng kam suv ishlatgan 20 ta xonadon va 20 ta ko'p qavatli uy rag'batlantirildi. Xususan, g'oliblar xonadonlariga quyosh panellari yoki uy atro-

"QORAQALPOQ SUV TA'MINOT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI NUKUS SHAHRI BO'LIMI BOSHLOG'I O'RINBOSARI SULTON BEGJANOVNING AYTISHICHA, TANLAB OLINGAN KO'P QAVATLI TURAR JOYLARDA JORIY YILNING 1-YANVARIDAN BOSHLAB SUV TEJAMKORLIGI BO'YICHA ISHLAR BOSHLANGAN. BUNDA XONADONLARNING SUV HISOBLAGICHLARI HAR OYNING BIRINCHI VA OXIRGI SANALARIDA TEKSHIRILIB, MONITORING QILIB BORILADI. YIL YAKUNIDA G'OLIBLAR ANIQLANADI.

fini yoritish moslamalari bepul o'rnatib beriladi.

Tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi, aholi sonining o'sishi hamda inson ta'siri bilan bog'liq boshqa omillar tufayli har qanday egzu tashabbus e'tiborli. Tejamkorlik esa hech qachon ziyon qilmaydi. Bu hozircha tajriba. U o'zini oqlasa, tashabbus yanada kengaytirish mumkin.

M.QUTLIMURATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Yangi O'zbekiston orzusi

MAQSADIMIZ ham,
YO'LIMIZ ham ANIQMAS'ULIYAT VA DAXLDORLIK TUYG'USI
KO'ZLAGAN MARRAMIZGA YETKAZADI
(Birinci maqola)Shukritdin PAXRUTDINOV,
siyosiy fanlar doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqida ham ushbu masalaga to'xtalib, "Ilgari o'z maqsad va manfaatlarini, asosan, diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchaga bosim o'tkazish, qarama-qarshilik va to'qnashuvlar yo'lga o'tganiga hammamiz guvohmiz. Afsuski, bunday keng ko'lamlari va o'ta ziddiyatli jarayonlarning ta'siri Markaziy Osiyo mintaqasi va uning tarkibiy qismi bo'lgan mamlakatimizni ham chetlab o'tmayapti. Ana shunday g'oyat murakkab va tahlikali vaziyatda O'zbekistonning milliy manfaatlariga javob beradigan to'g'ri yo'lni topish albatta oson bo'lmayapti", degani bejiz emas.

Haqiqatan, bugungi murakkab, manfaatlar, g'oyalari va mafkuralar kurashi avjiga chiqqan, noaniqlik hukm surayotgan, axborot va texnologik kurash jahon muammosiga aylanib borayotgan bir davrda jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ushlab turish naqadar qiyin kechayotganini ko'rish mumkin. Bunday vaziyatda fuqarolarning o'z huquq va majburiyatlarini muayyan darajada bo'lsa-da, anglab yetish sur'atining oshib borishi davlat boshqaruvida xalq hokimiyatini yuzaga chiqarish, bosqichma-bosqich o'zini o'zi boshqaruv jarayonini amalga oshirishga ehtiyojning ortishi, bir so'z bilan aytganda, aholining siyosiy faolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida, davlat boshqaruvi uchun juda katta ko'makdir. Buning uchun jamiyatdagi barcha qatlam manfaatini samarali himoya qilish, ziyolilar sonining oshib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Ammo qars ikki qo'ldan chiqqanidek, ayrim rahbarlarning hozirgi davr o'ziga xosligini anglab yetmayotgani fuqarolik jamiyati qurishdagi katta muammoga sabab bo'lmoqda.

Bunday vaziyatda fuqarolik jamiyati qurish talabini ortib borishi davlat tashkilotlari va xalq o'rtasida nomutanosib holat yuzaga kelishiga olib keladi. Bu esa har bir rahbardan ogohlik, o'ta hushyorlik, aholining turmush darajasidan tortib, ma'naviy holatigacha obyektiv baholash, yaxshilash va sog'lomlashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rishni talab qiladi. Bu barqaror taraqqiyotni, milliy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim sharti ekanini unutmashlik kerak.

O'zbekistondagi yangilanish va modernizatsiya jarayonining hozirgi bosqichida fuqarolik jamiyatining mustahkam zaminini barpo qilishga qaratilgan islohotlar keng ko'lamda rivojlantirilmoqda. Bu o'rinda jamiyat miqyosida demokratiyaning institutsional va ijtimoiy-iqtisodiy poydevorini zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida ilmiy jihatdan takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu vazifalarni tizimli va samarali bajarish, o'z navbatida, inson qadri, huquq va erkinliklarini mustahkamlash, davlat va jamiyatni demokratik yangilash, liberallashtirish jarayonining ijtimoiy o'zagini mustahkamlashga yo'g'rilgan tub islohotlarni real ravishda amalga oshirishga asoslanishi lozim.

O'tgan davrda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida haqiqatan inqilobiy o'zgarishlarga erishildi. Buning zamirida nima yotibdi? Albatta, xalqimizning amaliy islohotlarga ishonchi va davlat siyosatining milliy manfaatlarimizga hamda davr talabiga mosligi. Tarixan qisqa vaqtda mamlakatimizda tub va jadal demokratik islohotlarning mutlaqo yangi bosqichini belgilab beruvchi, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishning uzoq muddatli, amaliy strategiyalari ishlab chiqildi.

O'zbekistonning barqaror rivojlanishini o'zida to'la aks ettiruvchi ushbu strategiyalar zamirida yillar davomida amal qilib kelgan "davlat — jamiyat — inson" tamoyili "inson — jamiyat — davlat" tamoyili bilan o'rin almashdi. Eng muhimi, islohotlar xalqning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini, real hayot haqidagi dunyoqarashini o'zgartirmoqda.

Endi xalqimiz va davlatimiz oldida turgan eng muhim va zarur masala 2030-yilgacha bo'lgan davrda aholi sog'lom turmush tarzi va farovonligi, bandligini, sifatli ta'lim, gender tenglik, barqaror infratuzilma, xavfsizlik va ekologik barqarorlikni ta'minlash, shuningdek, tengsizlikning barcha ko'rinishlarini qisqartirish, iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish kabi muhim maqsad va vazifalarni amalga oshirishdan iborat.

Bu kabi ustuvor maqsad va vazifalar ijrosi yo'lida har bir fuqaroning — u rahbari, xodimmi, oddiy xalq vakilimi, mas'uliyat va daxldorlik tuyg'usini samarali shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega.

JAMIYATNI
DEMOKRATLASHTIRISH —
INSON KAMOLOTI UCHUN
IMKONIYAT

Har bir millat, jamiyat va davlatda demokratiyani anglash, talqin etish va amaliyotda qo'llashda o'ziga xoslik mavjud. Bu — xalqning bosib o'tgan tarixiy yo'li, milliy mentaliteti, an'analari, amaldagi ijtimoiy munosabatlarning xarakteri kabi qator omillar bilan belgilanadi.

Jamiyatni demokratlashtirish mohiyatan insonning har tomonlama kamol topishi uchun berilgan imkoniyat, shaxs bilan jamiyat manfaatlaridagi uyg'unlikni ta'minlovchi omildir. Jamiyatni demokratlashtirish mezonini tarixiy taraqqiyot davomida shakllan va mazmungan bo'yib borgan. Bu jarayon bugun ham davom etmoqda. Zero, jamiyat hayotini de-



demokratlashtirish eng rivojlangan davlatlarda ham yuqori takomil nuqtasiga, ideal darajasiga erishgani yo'q.

Har bir davlat taraqqiyotida muayyan strategik rivojlanishning demokratik izchilligi mavjud, u siyosiy taraqqiyotning, hattoki boshqaruvida universal tamoyillarni amalga oshirish borasida ham o'ziga xos shakl va uslublarni yuzaga keltiradi. Xususan, davlat boshqaruvi tizimining rivoji, o'z ahamiyatiga ko'ra, ma'muriy uslublardan sifat menejmenti tomon o'tish yo'nalishiga ega.

Biroq demokratik islohotlarni ijtimoiy hayotimizga jadal sur'atda singdirish hamda amaliy natijaga erishish kabi muhim jarayonda ayrim sohalar bo'yicha vazirlik, idora va tashkilotlar rahbarlari, mahalliy vakillik va ijro organlari faoliyatining samarasi pastligi, davr talabiga, strategik taraqqiyot talablariga javob bermasligi yoki boshqacha qilib aytganda, nolegitimligi saqlanib qolmoqda.

Davlat boshqaruvining ijobiy samarasi jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilsa, jamiyatda davlat boshqaruvida ehtiyoj va ishonch ortib boraveradi. Bu esa, jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlovchi eng asosiy shartlardan. Davlat ko'zlagan taraqqiyot strategiyasi barcha soha rahbarlarining faoliyat mezonlarini belgilovchi asosiy ko'rsatkichga



aylansa, boshqaruv munosib samaraga ega bo'ladi.

Ijro hokimiyati tizimida ayrim rahbarlarning demokratik tamoyillar asosida boshqaruvni amalga oshirishga o'zida kuch topa olmasligi, demokratik boshqaruv ko'nikmalari yo'qligi jamiyatimizdagi og'riqli nuqta bo'lib qolmoqda. Birgina rahbar-xodimning boshqaruvni to'g'ri anglamasligi, inson haq-huquqlari, xalqning boshqaruvdagi rolini tan olmasligi natijasida davlatdagi demokratik islohotlar bilan nomutanosiblik, insonlar orasida norozilik va tushunmovchilik kayfiyati yuzaga kelishi mumkin.

Demokratik boshqaruvni amalga oshira olmagani rahbarda tabiiy ravishda buyruqbozlik, shaxsiy namuna ko'rsata olmaslik holati yuzaga keladi. Bu esa mas'uliyatsizlik,

Bugun mamlakatimizda amaldagi siyosiy partiyalarning faoliyati, majburiyati, mas'uliyati deyarli sezilmayotgani jamiyatning ularga nisbatan befarqligida ko'rinib turibdi. Holbuki, davlatimiz rahbarining har bir nutqi, ma'ruzasida, davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun belgilab berilayotgan strategik maqsad va vazifalarga barcha sohalaridagi aniq vazifamiz, erishilishi kutilayotgan natijalar raqamlarda to'liq ko'rsatib berilmogda.

Fuqarolik jamiyati qurishda siyosiy partiyalar faoliyatining o'rni juda katta. Chunki ular xalq irodasini ifodalovchi, davlat boshqaruvi va fuqarolar o'rtasida ko'priq vazifasini o'tovchi, xalq orzu-umidlarining davlat boshqaruvi, islohotlarda o'z ifodasini topishini ta'minlovchi bo'g'indir. Ular xalq irodasi bilan saylanadi hamda xalq manfaatini uchun ishlaydi.

Deputatlar xalq irodasi, xohish-istagi va tanlovi bilan saylanishi barchaga ma'lum. Saylovga qadar odamlar partiya nima, deputat nima ish qilishi haqida taxminiy ma'lumotga ega bo'ladi. Bu esa ularga deputatlikka nomzod tanlash, saylashga turki bersa, saylovdan keyin partiyadan jamiyatdagi muammolarni bartaraf etish harakati, saylovdan avval aytilgan, ko'plab muammolar yechimiga qaratilgan ishlarni kutadi. Ammo bu ishlarning amalga oshmasligi yoki boshlanib oxiriga yetmasligi, davlat boshqaruvida siyosiy partiyalarning yangi-yangi tashabbuslar bilan chiqmasligi, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi faolligini qo'llab-quvvatlamaslik, xalq orasidagi eng muhim masalalar, ichimlik suvi, ekologiya bilan bog'liq qator muammolarni bartaraf etish bo'yicha qonuniy assosning, samarali mexanizmining yaratilishidagi, qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatining bir-birini qo'llab-quvvatlovchi faoliyati ko'rinmayotgani kabi sabablar bora-bora siyosiy partiya nimaga kerak, degan savollar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.



Kuzatuv va tahlillarimizga ko'ra, oxirgi yillarda siyosiy partiyalar faoliyatida birmuncha pozitiv o'zgarishlar sezildi. Ayniqsa, partiya yetakchilari, ba'zi a'zolarida faollik namoyon

bo'la boshladi. Ularning sa'y-harakati, tashabbusi bilan qonun ijodkorligida, ijtimoiy hayotimizda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Albatta, buni e'tirof etish kerak. Lekin umuman olganda, nazarimizda siyosiy partiyalar harakatida hali talab darajasidagi keskin burilish, demokratik taraqqiyot yo'lidagi jadallashuv sezilayotgani yo'q. Siyosiy partiyalar dasturlarining bir-biridan deyarli farq qilmasligi, ularni hayotga joriy etishning aniq taktikasi, mexanizmi takomillashmagani amaliyotdagi natijalarda ko'rinib qolyapti.

Siyosiy partiyalar o'z dastur va "yo'l xarita"larida asosan, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga doir qarashlar bilan cheklanib qolmay, jamiyat a'zolarining ma'naviy-mafkuraviy tafakkurini oshirishga jiddiy e'tibor qaratishi davr talabidir. Nazarimizda siyosiy partiyalarning o'zaro amaliy raqobati quydagi yo'nalishlarda bo'lishi maqsadga muvofiq:

birinchidan, milliy manfaatlarimiz asosida davlat va hokimiyat taraqqiyotini ta'minlovchi strategik maqsadlarimizga erishishning samarali, amaliy taktikalarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilish.

Ikkinchidan, strategik taraqqiyot maqsadlarini amalga oshirishga qodir bo'lgan kadrlarni tanlash, vakillik va ijro hokimiyati organlariga tavsiya etish.

Uchinchidan, bugungi global o'zgarishlar, evrilishlar sharoitida siyosiy partiyalar o'z strategik yo'nalishlari sifatida mafkuraviy munosabatlarning milliy manfaatlariga mos modellarini "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasidan kelib chiqqan holda taklif etsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'rtinchidan, rahbarlikka layoqatli, vatanparvar, sadoqatli, qobiliyatli, mas'uliyatli kadrlarni tanlab, zamonaviy professional boshqaruv bo'yicha bilim va malakasini oshirish maqsadida Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga tavsiya berish mexanizmini tizimli ravishda amalga oshirish kerak.

haqiqiy ma'noda siyosiy legitimlikka erisha oladi. Legitimlikning siyosiy xarakteri esa fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, o'zaro manfaatdorlik va davlat islohotlariga xayrixohlik, jamiyat manfaati uchun qayg'urish, bag'rikenglik va murosaga tayyorlik, siyosiy hokimiyat va uning institutlariga ishonchda namoyon bo'ladi.

XALQ ISHONCHI VA
UMIDINI OQLASH —
ASOSIY MEZON

Bugun haqli savol tug'iladi: islohotlarning evolyutsion rivoji nima?

Avvalo, barcha sohada evolyutsion-tizimli taraqqiyot moddiy va ma'naviy rivojlanish o'rtasidagi uyg'un muvozanatdir. Agar o'zgarishlar, yangilanishlar inson ongi hamda tafakkurini o'zgartira olsa, bu chinakam ma'noda evolyutsion rivojlanish jarayoni bo'ladi.

Bugun rahbar bo'lish og'ir, shu bilan birga, sharafli mas'uliyat. Demokratik jamiyatda boshqaruv asta-sekinlik bilan xalq qo'lga o'tmas, davlat boshqaruvida xalq rahbarlari, rahbarlar xalqni qo'llab-quvvatlamas ekan, asl maqsad — mamlakat tinchligi, xalq farovonligi, erangi kunga ishonch bilan yashash muammoligicha qolaveradi.

Nazarimizda aholining aksariyat qatlamida turmush darajasini moddiy jihatdan o'zgartirishga intilish kuchayib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ma'naviy yetuklik darajasi pasaymoqda.

Zamonaviy ilm-fan yutuqlarining taraqqiyotga hissa ham yetarli darajada sezilayotgani yo'q. Buni oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi islohotlarning hali yakuniga yetmagani yoki ta'lim-tarbiya jarayonini talab darajasida shakllantirishning aniq samarali yo'li mavjud emasligi, boshqaruvida hali ham byurokratik, korrupsion illatlar mavjudligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, bunga davlatimiz rahbarining ko'plab progressiv g'oyalari boshqaruv tizimidagi quyi bo'g'inlarga har doim ham yetib bormayotgani yoki uzilishlar mavjudligi, topshiriqlar ijrosini monitoring qilish bo'yicha muayyan samarali mexanizm takomillashmagani, sub'yektiv faktorlar ta'siridan xoli tizim yo'qligi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini boshqarayotgan ayrim rahbarlarning mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmasi talab darajasida emasligi kabilarni qo'shimcha qilsa bo'ladi.

Rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish amalda samarali davlat boshqaruvi siyosatiga hali to'laqonli xizmat qilmayotgani, raqobatli kadrlar rotatsiyasi jarayonining muttasil amalga oshirilmayotgani kabi holatlar hamon mavjudligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Vaholanki, qobiliyatsiz, mas'uliyatsiz, samarasiz rahbar boshqara joyda yaxshi bo'lib qolmasligi kabi og'riqli holatlar tizim yo'qligini takomillashuviga to'sqinlik qilayotganini hayotiy tajribamizda ko'rib, guvohi bo'lyapmiz.

Mutasaddi yosh, zamonaviy bilimga ega, kompyuter savodxonligi yuqori bo'lishi, chet tilini mukammal bilishi mumkin. Lekin hayotiy tajribasi-chi, shu sohaning muammolari, ikir-chikirlarini hal qilish yo'llarini to'g'ri anglab, ular yechimi bo'yicha rasional qaror qabul qilish va samarali boshqaruv ko'nikmalarga ega? Bo'lg'usi rahbar amaliy hayot maktabini ham qaysidir ma'noda o'tagan, soha bo'yicha ham muayyan tajriba, ish joyida ijobiy natijaga ega va jamoa tomonidan e'tirof etilgan bo'lishi, kadrlar tanlovi esa tort daira emas, keng daira shaffof o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Insonlar ruhiyatini tushunadigan, dardini o'zini, deb qabul qilib, ularga malham bo'la oladigan rahbarlar faoliyatida davomida ijobiy natijalarga erishgan. Chunki ular doim inson manfaatini o'zining ustun, deb bilgan. Xalqda tarixan isbotlangan bir naql bor: "Insonning asl qiyofasini bilmoqchi bo'lsang, unga mansab yoki boylik ber". Albatta, hamma davrlarda ham boshqaruv kadrlarini tanlash, tayyorlash va ularni adashmay munosib joyga tayinlash oson bo'lmagan. Lekin davr talabiga mos yechim topilgan taqdirda ijobiy natijalarga erishilgan.

